

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSC.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI**

**HAYITOV ISMOIL AXATQUL O'G'LI**

**Lu<sub>3</sub>Al<sub>5</sub>O<sub>12</sub>:Pr MONOKRISTALLARIDA O'STIRISH VA RADIATSIYAVIY  
NUQSONLARI NOBARQARORLIGINING REKOMBINATSIYA  
KINETIKASIGA TA'SIRI**

**01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi**

**fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on physical and mathematical sciences**

**Hayitov Ismoil Ahatqul o‘g‘li**

Lu<sub>3</sub>Al<sub>5</sub>O<sub>12</sub>:Pr monokristallarida o‘stirish va radiatsiyaviy nuqsonlar  
nobarqarorligining rekombinatsiya kinetikasiga ta’siri ..... 3

**Хайитов Исмоил Ахаткул угли**

Влияние нестабильности ростовых и радиационных дефектов  
монокристаллов Lu<sub>3</sub>Al<sub>5</sub>O<sub>12</sub>:Pr на кинетику рекомбинации..... 24

**Khayitov Ismoil**

Influence of the instability of growth and radiation defects of Lu<sub>3</sub>Al<sub>5</sub>O<sub>12</sub>:Pr  
single crystals on the recombination kinetics..... 46

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications..... 51

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2. PhD/FM1116 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.inp.uz](http://www.inp.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ibragimova Elvira Memetovna**

fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Radjabov Sali Ashirovich**

fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Boyboboyeva Sohiba Turamirzayevna**

fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi**

**O'zbekiston Milliy Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; e-mail: [info@inp.uz](mailto:info@inp.uz)).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ da tarqatildi.  
(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**M.Yu.Tashmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi f.-m.f.d., professor

**O.R.Tojiboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD, katta ilmiy xodim

**S.B.Igamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi vaqtda dunyoda ekstremal sharoitlarda, masalan, yadroviy nurlanishning radiatsion maydonlarida barqaror ishlaydigan noorganik lyuminessent materiallarning yangi turlarini izlash ishlari olib borilmoqda. Bu texnikaning rivojlanish darajasiga qo'yiladigan zamonaviy talablar, shu jumladan yadroviy tibbiyot diagnostikasi (pozitron emissiya tomografiyasi (PET), bir fotonli emissiya kompyuter tomografiyasi (OFEKT) va kompyuter tomografiyasi), yangi zarrachalarni aniqlash uchun yuqori energiya fizikasi, shuningdek, tibbiy buyumlar va oziq-ovqat mahsulotlarini sterilizatsiya qilish va atom stansiyalari uskunalarda, ishlatilgan yoqilg'i va radioaktiv chiqindilar omborlarida radiatsiya holatini nazorat qilish uchun termolyuminessent dozimetrlar bilan bog'liq.

Yangi lyuminessent va ssintillyator optik materiallarni maqsadli ishlab chiqish o'stirish va radiatsiyaviy nuqsonlarni tajribalarda o'rganish va ularning optikaviy shaffoflik va lyuminessensiyaning o'zgarishiga ta'sirini o'z ichiga olgan aniq fizik jarayonlarni tushunishga asoslangan. Shu jihatdan, granat murakkab tuzilishli oksid birikmalar sinfiga mansub bo'lgan monokristall alyumin-lyutetsiyli granat  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}$  (LuAG) hozirgi vaqtda kuchsiz va intensiv ionlovchi nurlarni aniqlash uchun istiqbolli materiallardan biri hisoblanadi. Buning sababi shundaki, LuAG monokristallari yuqori zichlikka ( $6.7 \text{ g/cm}^3$ ) ega va prazeodim  $\text{Pr}^{3+}$  ionlari bilan legirlangan LuAG ssintillyatsiya tezligini ( $\sim 20 \text{ ns}$ ) va yuqori yorug'lik chiqishini ( $\sim 22\ 000 \text{ fot/MeV}$ ) ta'minlaydi, bu yorug'lik chiqishi uch baravar va an'anaviy ishlatilayotgan vismut germanat  $\text{Bi}_4\text{Ge}_3\text{O}_{12}$  (BGO) monokristallari tezligidan besh baravar yuqoridir.

Mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ushbu fundamental tadqiqot va ishlanmalarning yo'nalishlari 2022 - 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida", 2013-yil 1-martdagi PF-4512-sonli "Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4556-sonli "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II-ustuvor yo'nalishi - «Energetika, energiya tejash va muqobil energiya manbalari»ga muvofiq ravishda bajarilgan.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Yadroviy tibbiy diagnostika uchun LuAG:Pr monokristallarining ssintillyatsiya va optik xususiyatlarini o'rganish bir qator jahon ilmiy markazlarida, masalan, Yaponiya (A.Yoshikawa, K Kamada), Xitoy (Y. Shen, X. Feng), Belorussiya (M. V. Korjik, A. A. Fedorov), Ukraina (Yu. V. Zorenko, V. I. Gorbenko), Chexiya (M. Nikl, V. Babin, V. V. Laguta), Shveysariya (E. Auffray, P. Lesuq) va boshqa mutaxassislar tomonidan olib borilgan.

Ushbu tadqiqotlar natijasida yadroviy nurlanishlarni qayd qilish uchun yaroqli bo'lgan ssintillyatsiya xarakteristikalarini olingan; optik va lyuminessent xarakteristikalar asosida taqiqlangan zona kengligi aniqlangan, optik yutilish polosalari, aktivator markazining foto-rentgen lyuminessensiyasi aniqlangan.

XX asrning 60-yillaridan boshlab O'zR FAda keng zonali kislorodli kristallar, lazer va optik kristallar, shu jumladan, nominal toza va turli ionlar bilan aktivlashtirilgan nodir yer elementlari ( $TR^{3+}$ ) alyumo-ittriyl granatlar  $Y_3Al_5O_{12}:TR$ , shuningdek, ba'zi  $TR_3Al_5O_{12}$  ( $TR = Tb, Dy, Ho, Er, Tm, Yb$ ) larda radiatsiyaviy ta'sir hodisalarini o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Taqiqlangan zona kengligi va uning hosilaviy xarakteristikalarining  $TR^{3+}$  ion radiusi va kristall panjara zichligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liqligi ko'rsatilgan.

YAG kristalida Y ni Lu (YAG ni LuAG) almashtirilishi kristallni yuqori haroratga barqarorlikni, tezligi va energiya ajrata olish qobiliyatining yaxshilangani ko'rsatildi.

Bundan tashqari, hali ham o'z yechimini topmagan muammo mavjud: LuAG:Pr ni qo'llaniluvchi sohalari yadroviy tibbiyot diagnostika vizualizatsiyasi sifatini yomonlashtiradigan va sintillyator radiatsiyaviy barqarorligini pasaytiradigan (yuqori energiya fizikasi), qoldiq lyuminessensiyani bartaraf etish yoki hech bo'lmaganda kamaytirish muammosi saqlanib qolinmoqda. Radiatsiya ta'sirida hosil bo'lgan defektlar mexanizmi va gamma nurlantirishda kuzatilgan yutilish chiziqlari yetarlicha o'rganilmagan; Har xil turdagi nurlanishlar ta'sirida optik xossalarning o'zgarishining doza va energiya bo'yicha bog'liqliklarini tizimli o'rganish talab etiladi. Qo'shimcha istiqbolli yo'nalish bo'lib  $Lu_3Al_5O_{12}:Pr$  ni termolyuminisentsiyali dozimetriya sohasida ishlatish imkonini tekshirish qolmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida, OT-F2-09 loyihasi "Ko'p komponentli oksid kristallarining spektral xususiyatlariga optik va ionlashtiruvchi nurlanishlarning ta'sir mexanizmlarining fizik asoslari" (2017–2020) bo'yicha amalga oshirilgan. Shuningdek, Prezidentning 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-son qarori bilan tasdiqlangan "Shisha va kristall matritsalarda nanohajmli qo'shimchalarning modifikatsiyasi va radiatsion-induksiyalangan sintezi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dasturi (2020–2024) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** granat strukturali  $Lu_3Al_5O_{12}:Pr$  alyumin-lyutetsiyli sintillyator monokristalida Pr ionlarining rekombinatsiyaviy lyuminessensiya jarayoniga o'stirish va radiatsiya bilan hosil qilingan nobarqaror va barqaror nuqsonli ranglanish markazlarining ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

nominal toza va aktivlashtirilgan namunalarda gamma-kvantlar bilan nurlantirilgandan keyin ranglanish va lyuminessensiya markazlarining lokal atom tuzilishini aniqlash va o‘stirish jarayonida hosil bo‘lgan nuqsonlarni ajratish;

( $10^2 \div 10^6$ ) Gr doza oralig‘ida gamma kvantlari bilan nurlantirilgandan so‘ng beqaror markazlarning relaksatsiyasi va barqaror rang markazlarining to‘planishi kinetikasini o‘rganish;

gamma-kvantlar ta’siri jarayonida  $\text{Pr}^{3+}$  ionlarining lyuminessensiya kinetikasini o‘rganish, ssintillyatorning doza chegarasini aniqlash;

tez neytronlar bilan nurlantirilgandan so‘ng rang va lyuminessensiya markazlarining lokal atom tuzilishini aniqlash va radiatsiyaviy nuqsonlarni ajratish;

tez neytronlar bilan hosil qilingan rang markazlarining  $\text{Pr}^{3+}$  lyuminessensiyasiga ta’sirini o‘rganish va ssintillyator uchun tez neytronlarning chegaraviy flyuensini aniqlash;

tez neytronlar bilan nurlantirilgan ssintillyatsion  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}:\text{Pr}$  monokristalini yuqori dozali termolyuminessent gamma-dozimetriya sohasida qo‘llash imkonlarini tadqiq qilish.

$\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}:\text{Pr}$  ning optik, lyuminessent va ssintillyator xarakteristikalarini ishlatish sharoiti bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kristall matritsasi sifatida aktivlashtirilmagan (nominal toza)  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}$  va sintilyator sifatida maxsus  $\text{Pr}^{3+}$  ionlari bilan aktivlashtirilgan  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}:\text{Pr}$  monokristallari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** zaryad tashuvchilar va nuqsonlar generatsiyasi, migratsiyasi va lokalizatsiyasining radiatsiya bilan stimullashtirilgan jarayonlari, ularning aktivator  $\text{Pr}^{3+}$  ionlarining lyuminessensiyasi chiqishiga ta’siri hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari:** gamma-kvantlar va tez ( $>0.1$  MeV) neytronlar bilan nurlantirish, optik yutilish, gamma- lyuminessensiya, fotolyuminessensiya va termolyuminessensiya spektrlari (300÷620 K harorat oralig‘ida).

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nominal toza LuAG va aktivlashtirilgan LuAG:Pr monokristallarida xususiy zaryadlangan anion vakansiyalari  $F^+$  va nazorat qilinmaydigan  $\text{Cr}^{3+}$  kirishma markazlari aniqlangan, ularning kelib chiqishi kristallarni o‘stirish texnologiyasi va aralashmaning kirishma tarkibi bilan bog‘liq. Gamma-nurlanishdan keyin optik spektrlarda ularning yanada aniqroq namoyon bo‘lishi oldindan bo‘lgan kislorod vakansiyalarining zaryadlanishi  $F^+$  va  $\text{Cr}^{3+} \rightarrow \text{Cr}^{4+}$  kirishma ionlarining valent holatining o‘zgarishi bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan;

LuAG:Pr 310 K haroratda  $10^3$  Gr dozada gamma-nurlantirishidan so‘ng va xona haroratida ushlab turish vaqtining 24 soatgacha ortishi bilan 340 K haroratdagi termolyuminessensiya pikining va xususiy  $F^+$  va kirishma  $\text{Cr}^{4+}$  rang markazlari o‘rtasida korrelyatsion beqarorlik, zaryad tashuvchilarning kichik sathlardan ozod bo‘lish mexanizmlari (310 K haroratda termik faollashuv), ularning migratsiyasi va rekombinatsiyaviy lyuminessensiyasi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Bu tuzoqlarni tez ssintillyatsiyalardan keyin uzoq vaqtli qoldiq lyuminessensiyani paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lishi ko‘rsatilgan;

gamma-kvantlar ta'sir qilish vaqtining  $1.4 \cdot 10^3$  Gr dozagacha oshishi bilan aktivator lyuminessensiyasining chiqish intensivligining  $\sim 9\%$  ga kamayishi LuAG:Pr kristall panjarasidagi xususiy ( $F$  va  $F^+$ ) va kirishma ( $Cr^{4+}$ ) nuqson markazlari bilan bog'liqligi va ularning zaryad tashuvchilarni qamrab olishda aktivator  $Pr^{4+}$  markazlariga raqobat bo'lish mexanizmi ko'rsatilgan;

tez neytronlar bilan  $>10^{15} \text{ cm}^{-2}$  flyuyensgacha nurlantirilgandan so'ng aktivator  $Pr^{3+}$  - markazning gamma- lyuminessensiya (GL) polosalar intensivligining pasayishi ushbu  $V_O(C_{dop})/F_2^+$ -markazlarning yutilish polosasida termik yoki foto rangsizlanishi - bir tomondan, neytronlar flyuyensining oshishi bilan miqdori ortib boradigan (300÷400) nm spektral sohada ranglanish (elektron  $F^+$  va teshikli  $O_i^-$ ) markazlari tomonidan aktivator lyuminessensiyasining reabsorbsiyasi; - boshqa tomondan, neytron bilan hosil qilingan  $V_O(C_{dop})/F_2^+$  -markazdan elektronlarning kovakli  $Pr^{4+}$  markazlariga o'tishi lyuminessensiya chiqarib  $Pr^{3+}$  ioniga o'tishi mexanizmlari bilan izohlangan;

ssintillyatsion xarakteristikalar (LuAG:Pr da 20 ns tez fluoressensiya) uchun mas'ul bo'lgan markazlarning rekombinatsiya juftlari faqat reaktorning radiatsiyasida hosil bo'lgan nuqsonlarning elektron tuzilishini qayta shakillantirishi orqali 440 K haroratdagi termolyuminessensiya pikining sekin fosforessensiyasi uchun ma'sul bo'lgan boshqa termolyuminessent rekombinatsiya juftlariga aylanishi ko'rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

xona haroratida gamma ta'sirida hosil qilingan ranglanish markazlarining va 340 K haroratdagi termolyuminessensiya pikining nobarqarorligi tibbiy tasvirlash qurilmalarida yani PET, YaFEKT va kompyuter tomografiyalari uchun keraksiz qoldiq lyuminessensiyani paydo bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan;

aktivlashtirilgan  $Lu_3Al_5O_{12}:Pr$  ssintillyator kristalini gamma va tez neytronlar bilan nurlantirishning optimal sharoiti aniqlangan, bunda gamma nurlantirish dozasi  $1.4 \cdot 10^3$  Gr bo'lganda aktivator lyuminessensiya intensivligi  $\sim 9\%$  ga kamayadi; tez neytronlar ta'siri  $10^{15} \text{ cm}^{-2}$  flyuyensgacha barqaror va  $10^{17} \text{ cm}^{-2}$  flyuyensda  $\sim 70\%$  ga kamayadi;

detektorning ruxsat etilgan resursini ishlatib bo'lingan LuAG:Pr ssintillyator monokristallarini neytronda nurlantirilib va termik ishlov berish yo'li bilan kengaytirilgan (13÷70.4)Gr dozalar oralig'ida  $^{60}Co$  yutilgan gamma-dozaning termolyuminessent dozimetrlarida qo'llash imkoniyati ko'rsatilgan; Olingan tadqiqot natijalari LuAG:Pr kristallarini qo'llash bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar tomonidan radiatsiya detektorlari uchun materiallarning radiatsiyaga barqarorligi va radiatsiya sezgirligini maqsadli boshqarish uchun yadro tibbiyoti, yuqori energiya fizikasi va termolyuminessent dozimetrlar sohalari uchun ishlatilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** bir-birini to'ldiruvchi absorbsion, lyuminessent, termo- va foto-rangsizlantiruvchi tadqiqot usullari majmuasidan foydalanilganligi, ko'p statistika va o'lchovlarning yaxshi takrorlanuvchanligi; natijalar va xulosalarning mantiqiyliigi va umumiy fizik tasavvurlarga zid emasligi; ularning fizik qonuniyatlar va modellar bilan taqqoslanishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati LuAG:Pr ssintillyatsiya monokristallarida radiatsiya bilan

nurlantirilganda xususiy va kirishmali nuqson rang markazlarini, qoldiq lyuminessensiyaning paydo bo'lish tabiatini hamda ionlashtiruvchi va yadroviy nurlar ta'sirida aktivator lyuminessensiyasining kamayishi fizik mexanizmlarini aniqlash ssintillyatsion materiallarga radiatsiyaning ta'siri haqidagi tasavvurlarni kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'z ichiga tibbiyot diagnostikasida (PET va YaFEKT) ishlatiluvchi sintilyatorlarni radiatsiyaga chidamliligini oshirish uchun o'ranatilgan qonuniyatlarni ishlatish imkoniyati va ularni barqaror ishlovchi dozaviy chegarasini baholashlarni oladi. LuAG:Pr sintilyator sifatida ishlatilib bo'lingan kristallarni radiatsion texnologik uslubda termolyuminisensiyon dozimetriyada  $^{60}\text{Co}$   $\gamma$ -dozasida ishlatish taklif etildi. Natijalar yadroviy tibbiyot va yuqori energiyalar fizikasi sohasida nurlanish detektor materiallarini optimallashtirish va ularni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Radiatsiya ta'sirida hosil bo'ladigan rang markazlari va ularning rekombinatsiya jarayonida aktivator nurlanishi chiqishiga ta'sirini o'rganish asosida quyidagilar aniqlangan:

nominal toza LuAG va maxsus aktivlashtirilgan LuAG:Pr monokristallarida ichki zaryadlangan anion bo'shliqlari  $\text{F}^+$  va nazorat qilinmagan kiritma aralashma  $\text{Cr}^{3+}$  markazlarining kelib chiqishi;

LuAG:Pr kristallari 310 K haroratda  $10^3$  Gr gamma-nurlanishi bilan nurlantirilgandan so'ng 340 K dagi termoyorqinlik piki bilan ichki  $\text{F}^+$  va aralashma  $\text{Cr}^{4+}$  rang markazlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik;

LuAG kristallarini gamma-kvantlar bilan nurlantirish davomiyligi oshirilganda doza  $1,4 \cdot 10^3$  Gr ga yetganda aktivator nurlanishi intensivligining taxminan 9% ga kamayish sababi; tez neytronlar bilan nurlantirishdan so'ng va undan keyingi termik rangsizlanish yoki fotoyoritish jarayonida aktivator  $\text{Pr}^{3+}$  markazining gamma-luminessensiya (GL) chiziqlari intensivligining pasayish mexanizmlari;

LuAG:Pr kristallaridagi 20 ns davomli tez sintillyatsion flyuoresansiyani sekin fosforessensiyaga mas'ul bo'lgan termolyuminestsent rekombinatsion juftlarga aylantirish usuli Buxoro davlat tibbiyot instituti "Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va informatika" kafedrasi tomonidan bakalavriatning "Biotibbiyot muhandisligi" va "Tibbiy biologiya" yo'nalishlari bo'yicha o'quv jarayonida ("Tibbiy elektronika" darsligi, S.X. Umarov – Buxoro: Durdon, 2024) (Buxoro davlat tibbiyot instituti xati №04/1055, 04.02.2025) hamda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan (Physics of the Solid State, Vol.61, №5, pp.735–741, 2019; Vacuum, Vol.197, 110819, 2022; Japan Journal of Applied Physics, Vol.62, 010613, 2023) foydalanilgan. Natijalardan foydalanish talabalarning detektorlar yorug'lik chiqishining kamayish sabablari, o'sish jarayonidagi nuqsonlar tufayli vizualizatsiya yomonlashuvi, shuningdek sintillyatsion detektorlarni tibbiy buyumlarni to'liq sterilizatsiya qilish uchun mo'ljallangan termolyuminestsent gamma-dozimetrlarga aylantirish tamoyillari bo'yicha tasavvurlarini kengaytirishga imkon bergan. Bundan tashqari, u LuAG:Pr kristallarida optik to'lqin o'tkazuvchi tuzilmalar shakllanishini tushuntirib beradi, bu esa ularning ixcham va yuqori samarali lazerlar, kuchaytirgichlar hamda

termoyadroviy plazmadagi yadro nurlanishi detektorlari yaratishdagi qo'llanilish imkoniyatlarini ochib beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi xorijiy va 1 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 105 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning asosiy mazmuni kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Radiatsiya ta'sirida alyumin-lyutetsiyli granatning strukturaviy, ssintillyatsion va absorbsion xususiyatlari"** deb nomlangan birinchi bobida strukturaviy, fizik va ssintillyatsion xususiyatlari bo'yicha adabiyot ma'lumotlari tahlil qilingan. Alyumin-lyutetsli granat monokristali va boshqa oksid monokristallari o'rtasida ssintillyatsiya va optik xususiyatlarning qiyosiy tahlili o'tkazilgan. Shuningdek, turli xil nurlanishlarning alyumin-lyutetsli granat monokristalining optik xususiyatlariga ta'siri bo'yicha tahlillar o'tkazilgan. Hal etilmagan muammolar aniqlandi, ular asosida ushbu ishning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **"Tadqiqot obyektlari<sup>2</sup> va eksperimental usullari"** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlarini tanlash, aktivator prazeodim (Pr) ionining 0.22 mol % miqdori, shuningdek, LuAG:Pr ssintillyator kristallarini olish usuli asoslangan. Radiatsiyaning optik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish uchun kristallar <sup>60</sup>Co manbainig 1.17 va 1.33 MeV energiyali gamma-kvantlari bilan 310 K haroratida ikkita 0.80 va 1.1 Gr/s quvvatlarda katta  $10^2 \div 10^6$  Gr dozalar oralig'ida, kichik 6.4  $\div$  70.4 Gr dozalar bo'lganda esa mos ravishda 0.064 Gr/s kichik quvvatlarda nurlantirildi. O'zR FA YAFIda quvvati 10 MVt bo'lgan VVR-SM reaktorida aralash neytron-gamma oqimlari bilan nurlantirish uchun namunalar alyuminiy folgaga o'raldi va devorlarining qalinligi 1 mm bo'lgan kadmiy stakanga joylashtirildi. Kadmiy stakani < 0.1 MeV energiyali issiq va rezonans neytronlarini yutib qoladi va

---


<sup>2</sup> Namunalar Scintillation Materials Research Center, Department of Materials Science and Engineering, University of Tennessee, Knoxville, USA (A.F.Rakov va K.Kamada) hamkasblari tomonidan taqdim etilgan.

faqat  $3 \cdot 10^{13} \text{ cm}^{-2}$  sek (gamma-komponent 37 Gr/s) oqim bilan  $> 0.1 \text{ MeV}$  energiyali tez neytronlarni o'tkazadi. Namunalar solingan to'rtta konteyner  $10^{15}$ ,  $10^{16}$ ,  $5 \cdot 10^{16}$  va  $10^{17} \text{ cm}^{-2}$  tez neytronlar flyuyenslari bilan nurlantirildi. Vazifalarni bajarish va tadqiqot maqsadiga erishish uchun zarur bo'lgan gamma-dozalari va tez neytronlarning flyuyenslari, shuningdek, eksperimental optik usullarni tanlash asoslangan.

Optik spektral asboblari: optik yutilish, foto va gamma lyuminessensiya spektrlarining xatoligi 1-3% dan oshmaydi. Namunalar bo'yicha statistika - 5%.

Dissertatsiyaning **“Aktivlashtirilmagan va aktivlashtirilgan  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}:\text{Pr}$  kristallarining gamma-kvantlar bilan nurlantirishdan oldin va keyingi optikaviy spektral xarakteristikalari”** deb nomlangan uchinchi bobida nominal toza (NT) va prazeodim (Pr) aralashmasi bilan LuAG da  $^{60}\text{Co}$   $\gamma$ -kvantlar bilan nurlantirishdan oldin va keyin monokristallarning optik xarakteristikalari bo'yicha tajriba tadqiqot natijalari keltirilgan.

Nurlantirilmagan NT LuAG namunalarining optik yutilish (OYu) spektrlarida 240 va 285 nm atrofida juda zaif yutilish polosalari kuzatiladi (1a-rasm, 1-egri chiziq).  $10^3 \text{ Gr}$  dozada  $^{60}\text{Co}$  gamma-nurlantirishdan so'ng, 240 nm OYu polosasidan tashqari, 285 nm polosada optik zichlikning oshishi kuzatiladi, bu rang markazlar miqdorining oshishini ko'rsatadi (1-rasm, a, 2-egri chiziq). Spektrning ko'rinadigan sohasida OYu 375, 467 va 600 nm polosalar paydo bo'ladi (1b-rasm, 2-egri chiziq).




**1-rasm. LuAG kristallarining (qalinligi -1 mm) UB (a) va ko'rinadigan sohada (b) yutilish spektrlari: dastlabki (1), 305 K da  $10^3 \text{ Gr}$  doza bilan nurlantirilgandan so'ng 3 daqiqadan keyin o'lchangan (2); keyin har 10 daqiqada (3-7), so'ngra 20 daqiqa (8) va 24 soatdan keyin (9).**

NT namunalardan farqli o'laroq, LuAG:Pr aktivatori ishtirokida OYu spektrida ma'lum  $\text{Pr}^{3+}$  ionining 240 va 285 nm ( $4f \rightarrow 5d$ ) yutilish polosalari va ( $4f \rightarrow 4f$ ) o'tishlari bilan bog'liq (450÷500) nm va (580÷620) nm atrofida multiplet yutilish chiziqlari kuzatiladi (2a-rasm, 1-egri chiziq).  $10^3 \text{ Gr}$  dozada  $\gamma$ -nurlantirishdan so'ng,  $\text{Pr}^{3+}$

aktivatorining ( $4f \rightarrow 5d$ ) o'tishlari bilan bog'liq 240 va 285 nm polosalar intensivligining aniqroq o'zgarish kuzatilmadi (2a-rasm, 2-egri chiziq).

Spektrning ko'rinadigan sohasida  $\text{Pr}^{3+}$  ning 500 va 600 nm atrofidagi multiplet yutilish chiziqlaridan tashqari, LuAG NT namunasidagi (1-rasm, b, 2-egri chiziq) kabi 375 va 600 nm li polosalar kuzatiladi (2b-rasm, 2-egri chiziq).




**2-rasm. LuAG:Pr kristallarining (qalinligi -1 mm) UB (a) va ko'rinadigan sohada (b) yutilish spektrlari: dastlabki (1),  $10^3$  Gr doza bilan nurlantirishdan 3 daqiqa o'tgach (2) va 24 soatdan keyin o'lchangan (3)**

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ikkala namunada ham  $\text{Pr}^{3+}$  aktivatorning mavjudligidan qat'i nazar, kristallarni inert muhitda o'stirish jarayonida hosil bo'ladigan xususiy yoki krishma nuqsonlar mavjud.  $10^3$  Gr dozadan so'ng LuAG da OYu 285, 375, 467 va 600 nm polosalari (1a, b-rasm, 2-egri chiziq) va LuAG:Pr da 375, 470 va 600 nm polosalari (2b-rasm, 2-egri chiziq) intensivligining o'sishi, aftidan, xususiy nuqsonlarning zaryadlanishi va kirishmaviy nuqsonlarning elektron holati (valentligi) ning o'zgarishi bilan bog'liq. LuAG va LuAG:Pr monokristallarini o'stirish texnologiyasi jarayonida  $\text{Al}_2\text{O}_3$  xom ashyosini metallardan, masalan, xrom, temir yoki titan aralashmalaridan butunlay tozalash imkoni bulmasligidandur. Bundan tashqari, kristallarni  $2000^\circ\text{C}$  dan boshlab inert muhitda sekin sovutish orqali o'stirishda kristallda termodinamik muvozanatli zaryadlanmagan tugunlarga qarashli anion vakansiyli nuqsonlar hosil bo'lishi muqarrar. Kichik  $10^3$  Gr doza bilan nurlantirilganda, hatto NT LuAG kristallida ham 240 nm OYu polosasi ega  $F^-$  markazlar (1-rasm, a egri chiziq), 375 nm  $F^+$  -markazlar, shuningdek,  $\text{Cr}^{4+}$  - krishma markazi bilan bog'liq 285, 467 va 600 nm polosalarning namoyon bo'lishini shu bilan izohlash mumkin (1b-rasm, 2-egri chiziq). Bundan tashqari, olingan natijalar NT va aktivlashtirilgan LuAG:Pr kristallarida 700 nm atrofida Cr kirishmasi bilan bog'langan ma'lum R lyuminessensiya polosasi kuzatildi, natijalar quyida keltirilgan (4a-rasm, 1 va 2-egri chiziq).

Keyinchalik, LuAG va LuAG:Pr namunalarining  $\gamma$ -nurlantirish  $10^3$  Gr dozasi dan keyin rang markazlarining vaqt bo'yicha relaksatsiya kinetikasi o'rganildi.

Ushlab turish vaqti 70 daqiqagacha oshishi bilan (2-8 egri chiziqlar) 240 nm polosa intensivligi 24 soatdan keyin ham o'zgarmadi (9-egri chiziq), 285 nm polosa intensivligi esa 24 soatdan keyin biroz kamayadi (1a-rasm, 9-egri chiziq). Shu bilan birga, spektorning ko'rinadigan sohasida 375 nm OYu polosalari intensivligining 30% ga, 467 va 595 nm polosalari intensivligining 45% ga kamayishini kuzatamiz (1-rasm, b, 3-8, 9-egri chiziqlar). Xuddi shunday relaksatsiya kinetikasi OYu 375 va 595 nm polosalari uchun aktivlashtirilgan LuAG:Pr namunalarida ham kuzatiladi (3.2-rasm, b, 3-egri chiziq). Bunda  $Pr^{3+}$  ioniga tegishli 240 va 285 nm ( $4f \rightarrow 5d$ ) hamda (450÷500) nm (580÷620) nm ( $4f \rightarrow 4f$ ) yutilish polosalarining intensivliklari va strukturasi o'zgarmaydi (2a,b-rasm, 3-egri chiziq). Kuzatilayotgan hodisalar, aftidan, termik faollashtirilgan tutqichlardan ozod bo'lgan zaryad tashuvchilarning lyuminessensiya markazlariga migratsiyasi va keyinchalik rekombinatsiyasi bilan bog'liq. Buni LuAG (1,3-egri chiziqlar) va LuAG:Pr (2,4-egri chiziqlar) namunalarini  $10^3$  Gr gamma-nurlantirishdan keyin 5 daqiqa (1 va 2-egri chiziqlar) va 24 soat (3 va 4-egri chiziqlar) o'tgach o'lchangan 300 dan 650 K gacha bo'lgan harorat oralig'ida termolyuminessensiya (TL) egri chiziqlar natijalari tasdiqlaydi (3a-rasm). Ko'rinib turibdiki, 310 K haroratda  $10^3$  Gr dozada  $\gamma$ -nurlantirishdan keyin 24 soatgacha ushlab turish vaqtining oshishi bilan ikkala namunadagi 340 K TL pikining intensivligi sezilarli darajada kamayadi (3a-rasm, 2 va 4-egri chiziqlar).



**3-rasm. (a) qalinligi -1 mm bo'lgan LuAG (1, 3) va LuAG:Pr (2, 4) kristallarida  $10^3$  Gr doza bilan nurlantirilgandan keyin 5 daqiqa (1, 2) va 24 soat (3, 4) o'tgach o'lchangan termolyuminessensiya piklari; (b) LuAG (1) va LuAG:Pr (2) kristallarining lyuminessensiya spektri**


Bu vaqtda, 24 soat davomida 375, 467 va 595 nm OYu polosalari intensivligining pasayishi ham kuzatiladi (1b-rasm va 2b-rasm), bu zaryad tashuvchilarning kichik bulgan qamrash sathlaridan ozod bo'lishi (300 K bilan termik faollashuv), ularning ko'chishi va lyuminessensiya markazlari bilan rekombinatsiya lyuminessensiyasi bilan bog'liq. Shu bilan birga, 24 soat davomida yuqori haroratdagi TL 410, 490÷500 va 530 K piklarining intensivligi deyarli o'zgarmadi

(3a-rasm, 2 va 4-egri chiziqlar), ya'ni ular xona haroratida (305 K) rang markazlarining relaksatsiyasi jarayonida ishtirok etmaydi. 3b-rasmda LuAG (1-egri chiziq) va LuAG:Pr (2-egri chiziq) namunalari (250÷550) va (550÷800) nm spektr sohasida lyuminessensiyaniing spektrol tarkiblari aniqlandi. Bizning fikrimizcha, Lu<sup>3+</sup> ionining kattaligi (0.091 nm) tufayli Al<sup>3+</sup> ioni (0.051 nm) o'rnini egallaganda, qo'shni panjarada joyidan kislorodni siljitadi va oktaedrda kislorod bo'shlig'ini qoldiradi, bunda anti-tugunli nuqson kompleksi hosil bo'ladi (Lu<sub>Al</sub><sup>3+</sup>-V<sub>o</sub> o'rinli) va 335 nm sohasidagi lyuminessensiya uchun javobgardir. NT LuAG kristallarida 395 nm da lyuminessensiya polosasi bizga ma'lum (Babin V., Laguta V. V., *et. al.*, Phys. Stat. Sol. 2011. 239) asosga ko'ra F<sup>+</sup> markazga (anion bo'shligida, bitta elektron qamralgan) tegishli. LuAG:Pr namunasida 310 va 370 nm lyuminessensiya polosalari 5d→4f o'tishlar bilan bog'liq va 520 nm sohada Pr<sup>3+</sup> aktivatorining 4f→4f o'tishlari bilan bog'liq. LuAG kristalida Pr<sup>3+</sup> ioni mavjudligidan qat'iy nazar (3b-rasm, 1 va 2-egri chiziqlar), kuzatilayotgan 700 nm qo'shimcha lyuminessensiy polosa Cr<sup>4+</sup> - kritma markazlari bilan bog'liq.

Shunday qilib, har ikkala LuAG va LuAG:Pr namunalari tegishli OYu 375 nm polosa xususiy F<sup>+</sup> - markaz va 285, 467 va 595 nm da OYular Cr<sup>4+</sup> kirishma markazlariga, paydo bo'lishi o'stirish jarayoni va hom ashyoning tozaligi bilan bog'liq. Ularning 10<sup>3</sup> Gr kichik γ- dozadan keyin aniqroq namoyon bo'lishi xususiy nuqsonlarning zaryadlanishi va kirishma nuqsonlarining elektron holatining (valentligining) o'zgarishi bilan bog'liq. Ko'rinadigan sohadadagi ranglanish markazlarining va 340 K haroratdagi TL piki beqarorligi PET va kompyuter tomografiyasi uchun xona haroratida uzoq muddatli qoldiq lyuminessensiyaniing davomiyligi tibbiy tasvirlashni PET da yomonlashtirishiga olib kelishi mumkin.

Keyinchalik, LuAG:Pr ga 310 K da <sup>60</sup>Co γ- kvantlar ta'siri davomida Pr<sup>3+</sup> ionlarining d→f o'tishlari bilan bog'liq bo'lgan aktivator lyuminessensiya intensivligining o'zgarish kinetikasi o'rganildi.

Daslab Nominal toza kristallarida 310 K da va aktivlashtirilga LuAG:Pr da GL spektrolari qayd etildi (4a-rasm, 1 va 2 egri chiziqlar). Ko'rinib turibdiki, LuAG kristallda 310 K da γ-kvant ta'sirida 335 nm GL polosa kuzatiladi, bu Lu<sub>Al</sub><sup>3+</sup> - anti-tugunli markazga tegishli va 700 nm - Cr<sup>3+</sup> - markaz bilan bog'liq (1-egri chiziq). LuAG:Pr kristalida Cr<sup>3+</sup> -markaz bilan bog'langan 700 nm GL polosidan tashqari Pr<sup>3+</sup> aktivatorining 5d→4f o'tishlar bilan bog'langan 310, 375 nm intensiv GL va Pr<sup>3+</sup> 4f→4f o'tishlari bilan bog'langan 510 nm sohada kuchsizroq GL polosalari kuzatiladi (2-egri chiziq). 4.b-rasmda 2.9·10<sup>3</sup> Gr (60 min) gacha bo'lgan doza oraligida 310 nm Pr<sup>3+</sup> GL maksimum polosasining dozaga bog'liqligi keltirilgan. Pr<sup>3+</sup> va Cr<sup>3+</sup> ionlarida kovakning qamralishi, elektronlarning esa boshqa tuzoqlarga o'tishi 1.4·10<sup>3</sup> Gr dozagacha ~ 9-10% ga sekin chiziqli kamaytiradi yuqori dozalarda to'yinishi esa elektronlar va kovaklar generatsiyasi tezligi Pr<sup>3+</sup> da rekombinatsiyaviy lyuminessensiya o'rtasidagi muvozanat bilan bog'liq.



**4-rasm. a) LuAG (1) va LuAG:Pr (2) kristallarida 310 K da GL spektrlari b)  $\text{Pr}^{3+}$  310 nm polosa maksimumida  $2.9 \cdot 10^3$  Gr (60 min) gacha bo'lgan doza oraliqlarida GLning dozaga bog'liqligi**

Olingan natijalar 238 ( $F$ -markazlar), 375 ( $F^+$ -markazlar), 288 (2), 467 (4) va 601 nm ( $\text{Cr}^{4+}$  ionlari) xarakterli yutilish polosalariga ega bo'lgan rang markazlarining to'planish kinetikasining, 310 nm  $5d \rightarrow 4f$   $\text{Pr}^{3+}$  GL polosa kinetikasining o'zgarishi (4b-rasm)  $\gamma$ -nurlantirish dozasining oshishiga antisimbatik bog'liqligini ko'rsatadi. Shunday qilib, LuAG:Pr, kristallarida 310 nm GL polosa chiqishining 9-10% ga kamayishi  $\text{Pr}^{3+}$  markazlarida rekombinatsiya lyuminessensiyasi bilan zaryad tashuvchilarni tutib qolishda raqobatlashuvchi xususiy ( $F^+$ -markaz) va kirishma ( $\text{Cr}^{4+}$ ) nuqsonlar bilan bog'liq. 340 K da TL piki va 300 K da LuAG:Pr da 375 ( $F^+$ -markazlar) va 601 nm ( $\text{Cr}^{4+}$  ionlari) rang markazlarining aniqlangan korrelyatsiyaviy beqarorligi, ehtimol, PET va kompyuter tomografiyasi uchun muhim bo'lgan tibbiy vizualizatsiyaning buzilishini qoldiq lyuminessensiya keltirib chiqarishi mumkin.


Rang markazlarining to'planishi va aktivator lyuminessensiyasining o'zgarishi kinetikasi (4b-rasm) natijalari shuni ko'rsatdiki, gamma-kvanti ta'sirida yuzaga kelgan ranglanish markazlarining soni ( $10^3 \div 10^6$ ) Gr  $\gamma$ -doza oraliqlarida to'yinishga yetishi radiatsiyadan oldingi (o'strish jarayonida) nuqsonlar bilan bog'liq. Bundan farqli o'laroq, neytron oqimlari panjara atomlari bilan kuchli elastik ta'siri tufayli panjara tugunida atom siljishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa panjara tugunlarida ko'p sonli nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Shunday qilib, neytron+gamma (reaktorda) radisiyaning optik shaffoflik va aktivator lyuminessensiyasiga ta'sirini o'rganish yuqori energiyali eksperimental fizikada muhim ahamiyatga ega.

Shu munosabat bilan dissertatsiyaning **“Neytronlar bilan hosil qilingan ranglanish va rekombinatsiya markazlari va ularning nominal toza va aktivlashtirilgan  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}:\text{Pr}$  monokristallarida aktivator lyuminessensiyasiga ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida tez neytronlar bilan nurlantirishning  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}$  va  $\text{Lu}_3\text{Al}_5\text{O}_{12}:\text{Pr}$  optik xarakteristikalariga ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan.

Tez neytronlarni  $10^{16} \text{ cm}^{-2}$  flyuyens bilan nurlantirilgandan so'ng, LuAG namunalari 250 va 298 nm UB sohada yutilish polosalari va spektrning ko'rinadigan sohasida 350 dan 600 nm gacha bo'lgan kuchsiz keng polosa kuzatildi. Flyuensning  $10^{17} \text{ cm}^{-2}$  gacha ortishi bilan  $10^{16} \text{ cm}^{-2}$  flyuensga nisbatan OYu 250, 298 nm, keng (350÷600) nm polosalarning tezroq o'sishi ranglanish markazlarining hosil bo'lishi va ularning miqdorlarining ortishini ko'rsatdi. Gaussinyaning tarkibiy qismlariga ajratilgandan so'ng, 387, 458 va 573 nm da maksimumlarga ega bo'lgan uchta polosa ajralib chiqdi. Kislorod panjarasi alyuminiy panjarasiga qaraganda ancha zich,  $O$  atomi esa  $Al$  atomiga qaraganda yengil bo'lgani uchun kislorod nuqsonlari ustunlik qiladi. Shunday qilib, OYu ning 250 nm tez neytron ta'sirida hosil bo'lgan  $F^-$  markaz bilan, 298 nm esa  $O_i^-$  kavak markazi bilan, 375 nm esa  $F^+$  markaz bilan izohlanadi. OYu 573 nm polosasi  $Al$  kationini almashtiruvchi aralashma (metall) kation tuguni yonidagi kislorod vakansiyali elektron markaz bilan bog'liq bo'lishi mumkin yoki panjaradagi ko'p miqdordagi  $F$  va  $F^+$  -markazlardan biring diffuziyasi jarayonida ushbu  $F+F^+ \rightarrow F_2^+$  agregatlarini hosil qilishi mumkin (ya'ni uchta elektron qamrab olgan kislorod bivakansiyasi), keyinchalik ularni qulaylik uchun  $V_O (C_{dop})/F_2^+$  deb belgilaymiz. Bu nuqsonlar  $\gamma$ - kvantlar energiyasi yetarli emasligi sababli yuqori  $10^7 \text{ Gr}$  dozagacha nurlantirilganda kuzatilmadi (III bob, 1b-rasmga qarang).

Neytron ta'sirida hosil qilingan nuqsonlar generatsiya kinetikasini va ularning aktivator markazlariga ta'sirini batafsil aniqlash uchun biz LuAG:Pr da tez neytronlar flyuenslari bilan nurlantirmasdan oldin va nurlantirilgandan keyin optik xususiyatlarni taqqoslash uchun NT LuAG ga o'xshash sharoitlarda tadqiqotlar olib borildi.

5a-rasmda aktivatorli LuAG:Pr namunalarining nurlantirishdan oldingi va keyingi OYu spektrlari keltirilgan. Flyuensning  $10^{16}$  dan (3-egri chiziq)  $5 \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-2}$  gacha (5-egri chiziq) ortishi bilan  $Pr^{3+}$  tegishli 240 va 285 nm polosalar ortdi. Bu o'sish, aftidan, Nominal toza LuAG da kuzatiladigan 250 va 298 nm OYu polosalari bilan sezilarli darajada qoplanish bilan bog'liq bo'lib, ularning intensivligi neytronlar flyuensining o'shishi yoki aktivator valentligining ya'ni  $Pr^{3+} \rightarrow Pr^{4+}$  o'zgarishi bilan sezilarli darajada oshadi. Spektrning ko'rinadigan sohasida multiplet yutilish chiziqlaridan tashqari, 385, 570 nm polosalari ham kuzatildi (5a-rasm, 3,4 va 5-egri chiziqlar). Ko'rinadigan sohaning spektrlarini Gauss komponentalarini taqqoslash ularning nominal toza LuAG kristalli bilan o'xshashligini ko'rsatdi va aktivator bilan bog'liq bo'lmagan panjaralaridagi  $V_O (C_{dop})/F_2^+$  xususiy nuqsonlarga tegishlilikini tasdiqlaydi.




**5-rasm. LuAG:Pr kristallarining  $^{60}\text{Co}$   $\gamma$  -manba (b) bilan indutsirlangan yutilish (a) va lyuminessensiya spektrlari: dastlabki (1),  $10^{15}$  (2),  $10^{16}$  (3),  $5 \cdot 10^{16}$  (4) va  $10^{17} \text{cm}^{-2}$  (5) tez neytronlar flyuyenslari bilan nurlantirilgandan so‘ng**

Nominal toza va LuAG:Pr kristallardan olingan tajriba ma’lumotlaridan shuni ta’kidlash mumkinki, LuAG kristalida  $\text{Pr}^{3+}$  ioni mavjudligidan qat’iy nazar,  $>10^{15} \text{cm}^{-2}$  flyuyensli tez neytronda nurlantirish 387 nm  $F^+$ - va 573 nm  $V_O$  ( $C_{\text{dop}}$ )/ $F_2^+$  markazlarning OYu polosalarini paydo bo‘lishiga olib keladi, ya’ni ular haqiqatan ham kislorodga tegishli xususiy nuqsonlari bilan bog‘liqdir. Bundan kelib chiqadiki, tez neytronlar bilan hosil qilingan bu ranglanish markazlar o‘tkazuvchanlik zonasidan elektronlarni qamrab olishi va  $\text{Pr}^{4+}$ -holatni barqarorlashtirishi mumkin. Ammo bunday holda rekombinatsiya jarayonida aktivator lyuminessensiya intensivligi kamayishi kerak.

Dastlab LuAG:Pr namunasiga 310 K da  $^{60}\text{Co}$   $\gamma$  -kvantlari ta’sir ettirilganda, GL spektrida  $\text{Pr}^{3+}$  aktivatorining 310, 325 va 375 nm lyuminessensiya polosalari kuzatildi (5b-rasm, 1-egri chiziq). Ko‘rinib turibdiki, tez neytronlar  $\geq 10^{16} \text{cm}^{-2}$  flyuenslarida GL ning 310, 325 va 375 nm aktivator lyuminessensiya polosalarining intensivligi kuchli kamayadi (3-5 egri chiziqlar). Bu kristallning asosiga (matritsasiga) yutilgan energiyaning aktivator markaziga uzatilishida buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ushbu jarayonning kechishini aniqlash uchun bir qator quyidagi tajribalar o‘tkazildi:

OYu spektrlarini o‘lchash (6a-rasm) ketma-ket yani, neytronlar flyuensi  $10^{17} \text{cm}^{-2}$  (1), uni 605 K gacha qizdirish (tutqichdan zaryad tashuvchilarni issiqlik energiyasi bilan bo‘shatilishi) va  $10^3$  Gr dozali  $\gamma$  -nurlantirish (3) (tutqichlarni zaryadlar bilan to‘ldirish) bilan amalga oshirildi. Shu bilan birga,  $10^{17} \text{cm}^{-2}$  flyuyens bilan nurlantirilgan namunani 605 K gacha qizdirilgandan so‘ng va tutqichni to‘ldirish uchun  $10^3$  Gr dozada  $\gamma$ - nurlantirishdan so‘ng, 445, 515 va 545 K da integral TL egri chiziqda nominal toza LuAG TL piklariga mos keladigan piklar kuzatiladi (6b-rasm). Keyinchalik, eksperimental TL egri chizig‘i (6b-rasm, 1-egri chiziq) birinchi tartibli kinetika modelidan [Kitis, G., et.al., Jour. of Phys. 1998. 2636] va GlowFit dasturiy ta’minotidan [Puchalska, M., et.al., Rad. Measur. 2006. 659]

